

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QO‘CHQAROVA SHAKARJON AZIMBOY QIZI

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TAYANCH
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MATN USTIDA
ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UDK 373.4.091.33-096.176:81

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi.

О'zbek tili darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda
matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish3

Кучкарова Шакаржон Азимбой кизи. Совершенствование методики работы
над текстом в развитии базовых компетенций учащихся на уроках узбекского
языка.25

Kuchkarova Shakarjon Azimboy kizi. Improving the methodology of working on
the text in the development of basic competencies of students in Uzbek language
lessons49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QO‘CHQAROVA SHAKARJON AZIMBOY QIZI

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TAYANCH
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MATN USTIDA
ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4138 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abuzalova Mehriniso Kadirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "12" mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (bet 8 - raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "26" fevralda tarqatildi.

(2026-yil "26" fevralda 1 - raqamli reestr bayonnomasi).



Y.S.Sayidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.I.G'aybullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

B.R.Adizov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda til inson uchun borliqni anglash vositasi hisoblanadi. Maktab o'quvchisi tafakkurida ham, talaba tafakkurida ham olamning lisoniy manzarasi ona tili orqaligina shakllanadi. Ona tili o'qitishning yangi usullarini kashf qilish, amaliyotga uzluksiz joriy qilib borish muhim masalalardan hisoblanadi. Xalqaro til o'qitish metodikasida andaza sifatida qabul qilinayotgan ingliz tili ta'limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Xususan, orfoepiya o'qitishda bu yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni har bir tovushning alohida shaklda o'qilishi, so'z tarkibida o'qilishiga doir darsliklar, qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro til o'qitish metodikasida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchini turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish, asosan, o'qituvchilarning nutqiy kompetentligiga bog'liqdir. Shu ma'noda, xalqaro til o'qitish metodikasida bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarida adabiy talaffuz ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv topshiriqlaridan foydalaniladi.

Dunyoda rivojlangan tillarni ona tili sifatida o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda ona tili ta'limi, asosan, o'qituvchining nutqiy ko'nikmasiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim mazmuni o'qituvchining mahorati, malakasi orqali yuzaga chiqariladi. Har bir mashg'ulotda taqdim qilingan ma'lumotning talaba uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida talaffuz mashqlaridan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Dars bo'lajak o'qituvchilar uchun belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi, shuningdek, bugungi globallashtirish sharoitida ona tili boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. Talabalarda adabiy talaffuz ko'nikmasini rivojlantirish o'qituvchi nutqiga bog'liq, shu nuqtayi nazardan o'qitish metodikasida pragmatik o'quv topshiriqlar tizimini, xususan, talaffuz mashqlari tizimini ishlab chiqish amaliyoti mavjud.

Respublikamizda ham o'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida nufuzini oshirish, yangi zamonaviy o'qitish metodikalarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta'limiga ham zarur talablarini qo'yimoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"¹ligi ona tili ta'limi oldiga, xususan, o'qituvchilar tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish oldiga ham dolzarb vazifalar qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019-yil 21-oktabr.

tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi 419-son "Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risida", 2020-yil 11-martdagi 139-son "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini yangilashning ilmiy nazariy asoslarini H.Ne'matov, A.G'ulomov, R.Safarova va D.Yo'ldoshevalar ishlab chiqqan. Shuningdek, Sh.Yusupova² va T.G'aniyevlar tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Mazkur dissertatsiyalar mazmunidan bugungi kunda davlat tili ta'limida keng foydalanish mumkin. Ta'kidlash joizki, N.Mahmudov, A.Sobirov, I.Mirzayev, Sh.Yusupova, X.Muhiddinova, Q.Husanboyevlar ta'limda kommunikativ yondashuv, ilg'or pedagogik texnologiya, uzviylik va uzluksizlik bo'yicha nihoyatda to'g'ri yondashuvlarni ilgari surgan³.

Tadqiqotchi: A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G'aniyev, M.Saidov, A.Hamroyev, K.Mavlonova⁴lar ona tili ta'limi jarayonida talabalarning so'z boyligini

2 Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида талабалар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б; Фаниев Т. Она тили бўйича машқлар бажариш жараёнида талабаларнинг билим фаолиятини фаоллаштириш. Пед.фан.ном... дисс. автореф. – Тошкент: 1991. – 22 б; Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Тошкент: ТГПИ, 1991. – 37 б; Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5 синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном... дисс. –Тошкент: 2000. – 119 б; Алавуiddинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. ном... дисс.автореф. ТДПУ. –Тошкент: 2008. – 24 б.

3 Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док... дисс. –Тошкент: 1995. – 242 б; Юсупова Т. Узлуksиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлақларни ўргатиш: пед. фан. ном... дисс. автореф. ТДПИ. –Т.,1998. – 22 б; Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуksизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. ном... дисс. ТДПИ –Тошкент: 2011. – 270 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. дисс... автореф. –Тошкент: ТДПУ, 2006. – 262 б; Суюнов Х. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед. фан. ном... дисс. –Тошкент: 2005. – 125 б.

4 Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш. Пед. фан. док... дисс. –Тошкент: 2020. – 242 б; Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. фал. док... дисс. автореферати. –Тошкент: 2019. – 22 б.

oshirish imkoniyatlari, o‘zining ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida talabning bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Ayniqsa, G‘.Hamroyevning orfoepiya o‘qitish metodikasiga doir tadqiqotlari⁵, undagi mashqlaning nutqiy ko‘nikmalar, xususan, adabiy talaffuzni rivojlantirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotini alohida ta’kidlash mumkin.

MDH davlatlari olimlaridan: A.N.Leontev, J.A.Ponomarev, S.L.Rubenshteyn⁶larning tadqiqotlari va metodik qo‘llanmalarida rus tili orfoepiyasi va transkripsiyasi ustida ishlash mazmuni hamda usullariga doir masalalar tadqiq qilgan.

Xorij olimlaridan avstraliyalik olim Jak Richards⁷ ingliz tilining ona tili va ikkinchi til sifatida o‘qitilishida talaffuz mashqlarini tadqiq qilgan. Uning o‘quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi.

Biroq shunga qaramasdan, bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining adabiy talaffuz ko‘nikmasi qo‘yilgan talablarga, adabiy til me‘yorlariga, orfoepik qoidalarga mos emasligi sababli talabalarda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodik ta‘minot yaratilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Boshlang‘ich ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish metodikasini takomillashtirish (2021-2025-y.y.)” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish muammosini pedagogik-psixologik va metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishni tizimli o‘rganish;

o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashda nutq va tafakkurni shakllantirish mezonlarini takomillashtirish;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash tamoyillari, shakl va vositalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlari uchun Xorazm,

⁵ F.Хамроев Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларнинг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед. фан. фал. док. автореф. – Самарқанд. 2019. – 28 б.

⁶ Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. –Москва: Педагогика, 1972. – 576 с; Пономарев. Я. А. Психология творчества и педагогики, 1976. – 280 с; Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1976. – 416 с.

⁷ <https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/>

Surxondaryo, Namangan viloyatlari maktablaridan 345 nafar o‘quvchilar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish usullari, tizimi va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kognitiv-pragmatik pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, intervyu, anketa-so‘rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash nutq va tafakkurning aloqadorligi nutqiy faoliyatda qo‘llashga doir trening, pinboard, pragmatik, ergonomik, praksilogik omillarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish (aniqlik, izchillik, natijaviylik) mezonlari hamda (samaradorlik, qiyosiylik, mantiqiylik, dolzarblilik) tamoyillari asosida pragmatik intuisiyani shakllantirish mazmunan takomillashtirilgan;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash mazmuni, motivatsion, kommunikativ-kognitiv yondashuvlar asosida natijaviylikni gorizontal va vertikal taqqoslash, sharhlash “Hozirjavoblik”, “Evrika”, “Total Physical Respond”, Role play” didaktik o‘yinlar vositasida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan nutqiy vaziyatlarda qo‘llash, anglash, tushunish va ijodiy baholashga doir xususiyatlar pedagogik hamkorlik, individuallik, uzviylik va uzlyuksizlik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida mazmunan takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishga doir metodik talablar ishlab chiqilgan;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar vositasida o‘qitishga doir “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslik nashr qilinib, ta’lim amaliyotiga tatbiq etilgan;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli elektron ta’lim resursi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashilganligi hamda respublika va chet el olimlari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta’minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan

natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integrativ yondashuv asosida o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish muammolari, o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning mavjud holati tahlilga tortilganligi, ona tili darslarida matn ustida ishlash mazmunini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilganligi, o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini lug‘at zaxirasidagi so‘zlar asosida taqqoslash, o‘quv topshiriqlarini bajarishda so‘zlarning muvofiqligini tanlash va amalda samarali qo‘llash malakasini egallash masalalari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan g‘oyalar va amaliy tavsiyalardan “Ona tili” darsliklari materiallari asosida ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda, o‘qituvchilarni yangi metodikalarga o‘rgatish markazlarida tashkil etilgan kurslarda ma’ruzalar o‘qishda, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars jarayonida foydalanishlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash nutq va tafakkurning aloqadorligi nutqiy faoliyatda qo‘llashga doir trening, pinboard, pragmatik, ergonomik, praksiologik omillarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga doir xulosalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining “A1-XT-O-92977-raqamli-Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi innovatsion-tadqiqot loyahasini “O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida” qismini bajarishda foydalanilgan. (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2024-yil 26-dekabrda 545-son ma’lumotnomasi). Natijada, ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish (aniqlik, izchillik, natijaviylik) mezonlari hamda (samaradorlik, qiyosiylik, mantiqiylik, dolzarblilik) tamoyillari asosida pragmatik intuitsiyani shakllantirishga oid nazariyalardan ta’lim jarayonida foydalanilgan. (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining 2024-yil 18-dekabrda 01/11-6-1085-son ma’lumotnomasi). Natijada, ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari shakllantirilgan;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash mazmuni, motivatsion, kommunikativ-kognitiv yondashuvlar asosida natijaviylikni gorizont va vertikal taqqoslash, sharhlash “Hozirjavoblik”, “Evrika”, “Total Physical Respond”, Role play” didaktik

o‘yinlarga doir amaliy tavsiyalar “Ona tili va o‘qish savodxonligi o‘qitish metodikasi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-son buyrug‘i, 438332 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada ona tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilingani. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Umumiy hajmi 132 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari**” deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi fasli “*O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida*” deb nomlanadi. Bunda o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash jarayoni xususida fikr bayon etilgan. Pedagogika ensiklopediyasida “Kompetensiya (lot. kompete-erishyapman, munosibman, loyiqman) - 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi” tarzida ifodalangan.

Kompetentlilik esa – “1) ma‘lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi”.

Tayanch kompetensiyalar:

- kommunikativ kompetensiya;
- axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
- o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
- ijtimoiy-emotsional va fuqarolik.

Tayanch kompetensiyalar yordamida o‘quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlilik mazmun jihatidan muntazam takomillashadi. Tayanch

kompetensiyalarni mazmun jihatidan boyitish asosida ijtimoiy kompetentlilikning tarkibi ham takomillashadi. Jamiyat hayotidagi ilmiy, texnologik, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot tayanch kompetensiyalarning mazmun jihatidan boyishiga asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mazkur kompetensiyalarni intgeratsiyalash natijasida hosil bo'ladigan ijtimoiy kompetentlilikning ham mazmun jihatidan takomillashuviga asos yaratadi. Ijtimoiy kompetentlilikning asosini 2 ta katta guruhga mansub bo'lgan kompetensiyalar tashkil etadi. Birinchi guruhga mansub kompetensiyalar shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini mujassamlashtiradi. Mazkur guruhga quyidagi elementlarni kiritish mumkin: kommunikativ ko'nikmalar, guruhda ishlash layoqati, ziddiyatlar va muammolarni yecha olish layoqati. Ikkinchi guruh esa empatiya, rolli moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik kabilarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ ko'nikmalar shaxslararo munosabatlarga asos bo'ladi. Muloqot o'quvchilar hayotida alohida ahamiyat kasb etib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Muloqot jarayonida har ikki ishtirokchi ham faol mavqega ega bo'ladi. Ularning birgalikdagi faoliyati mahsuli sifatida o'zaro axborot almashish jarayoni kechadi. Kommunikativ jarayonning har bir sub'ekti o'z muloqotdoshiga nisbatan faollik ko'rsatadi. U o'z suxbatdoshiga axborotlarni taqdim etar ekan, qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlarini hisobga oladi.

Bobning ikkinchi fasli *“O'zbek tili darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda orfoepik ko'nikmalar vositasida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish jarayoni”* deb nomlangan. Bunda har bir shaxs uchun muloqot jarayonidagi axborotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayonda suxbatdoshlar umumiy fikr doirasida mulohaza yuritadilar. Shu asnoda ular axborotlarni shunchaki qabul qilmaydilar, balki ushbu axborotlar ustida o'ylaydilar, fikr yuritadilar. O'zaro axborot almashinish muloqotdoshlarning xulq-atvoriga ham ta'sir ko'rsatadi. Kommunikativ ko'nikmalar doirasida shaxslarning muvaffaqiyatli munosabat o'rnatishlari uchun zarur bo'ladigan ko'nikmalar nazarda tutiladi. Bunda asosiy e'tibor shaxslararo munosabatlar jarayonida nazokat bilan muomalada bo'lish, o'zini tutish, suxbatdoshiga hurmat ko'rsatish nazarda tutiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida o'quvchilarda matnlarni savodli, ongli ravishda tuzishga doir bilim berish, ko'nikma va malakalarni, nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirish, ularni zarur nutqiy muloqotga tayyorlash, matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlarni aniqlash va ajratish, bir so'z bilan aytganda, qoidalar uchun lingvistik asos tarzidagi matniy ta'lim mazmunini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zamon talabidir. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda matn tuzilishini o'rgatish eng muhim ta'limiy maqsadlardan biridir.

“O'zbek tili darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashga doir o'quv materiallari yuzasidan tahlillar” deb nomlangan faslida o'quv topshiriqlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarga yaxlit matnga xos funksional-semantik tuzilish xususiyatlarini, matn yaratish qonuniyatlarini o'rgatish orqali og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Gap turlarini va ularning o'zaro bog'lanishini matn yaratish darajasida o'rganish, shu asnoda matn tuzilishiga doir

bilim va malakalarni egallash o‘quvchilarda aniq maqsad sari intilishni yuzaga keltirib, ona tilini samarali egallash uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zero, til hodisalari asosan bog‘lanishli nutq orqali harakatga kelib, o‘zining real kommunikativlik xususiyatini namoyon qiladi. Ushbu materiallar, ular bilan bog‘liq qoidalar matn tuzilishi orqali o‘rganilmas ekan, egallangan bilim va malakalar ko‘proq lingvistik kompetensiyani shakllantirish darajasida qolib ketaveradi. Tilshunoslikka doir adabiyotlarda talqin qilinishiga ko‘ra matn tuzilishi ikki xil ma‘noda: keng va tor ma‘nolarda tushuniladi. Keng ma‘noda matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat ekani, ular bilan bog‘liq ayrim o‘rganish muhim bo‘lgan til birliklari mavjudligi nazarda tutilsa, tor ma‘noda matn sintaksisiga oid manbalarda ajratilayotgan murakkab sintaktik butunlik va abzas bilan bog‘liq matn tuzilishi nazarda tutiladi. Ayni tor ma‘nodagi matn tuzilishi keng qamrovga ega bo‘lib, ta‘limiy birliklarni ajratish va uni shu birliklar asosida o‘rganish ishlarini tashkil etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash va rivojlantirish, ushbu bilimlarni qoidalar va mashqlar tizimi sifatida shakllantirish mumkin.

Bugun ona tili ta‘limi sohasida quyidagi masalalar bilan bog‘liq lingvistik asoslarni aniqlashtirish ehtiyoji mavjud: 1) matn qismini qanday atash (murakkab sintaktik butunlik, abzas yoki matn qismi) maqsadga muvofiq ekani; 2) matn qismida gaplarning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari va vositalari; 3) matn qismining birinchi (qisman oxirgi) gapi; 4) matn qismida ayrim murakkab sintaktik qurilmalar. Dissertatsiyada ushbu masalalar yuzasidan ma‘lumotlarni o‘rganish va to‘plash, xulosalar chiqarish maqsadida matn tilshunosligi (matn lingvistikasi) hamda lingvodidaktikaga doir manbalar tahlilga tortilgan (1-jadvalga qarang).

“1-jadval”

O‘quvchilar tomonidan matnni anglash va tushunish tizimi

Ish bosqichlari	Ish uslublari
I.O‘qishga tayyorlanish Kirish mashg‘uloti	O‘qituvchi so‘zi yoki suhbat
II. Matnni birlamchi yaxlit qabul qilish	Ovoz chiqarib (I sinf) yoki “ichda” (II-III sinflar) o‘qish, o‘qituvchining o‘qib berishi
III. Birlamchi qabul qilishni tekshirish	O‘qilgan asar to‘g‘risidagi tasavvurni aniqlashtiruvchi savollarga javoblar
IV.Tahlilning I bosqichi – daliliy mazmunini tushunish	Matnning o‘quvchilar tomonidan davomli o‘qilishi, uning mazmunini o‘qituvchi yordamida sharhlash
V.Tahlilning II bosqichi – asosiy fikrlar, qahramonlar tuyg‘usini tushunish, harakatlarini baholash	Tanlab o‘qish va tasavvurida “so‘z bilan chizish” yordamida matn qismlari yoki tasvirlarning tahlili
VI.Sintez – nisbatan teranroq asosda yaxlit qabul qilish (asarning g‘oyaviy, obrazli tomonini yaxlit anglash)	O‘quvchilar tomonidan o‘qilganlarga mustaqil baho berish. O‘qilgan asarga bo‘lgan munosabatini o‘z so‘zlari bilan ifodalash. Ifodali o‘qish

Matn lingvistikasiga oid manbalardan ma‘lumki, matn qismini qanday atash (murakkab sintaktik butunlik, abzas yoki matn qismi) maqsadga muvofiq ekani uzoq yillik bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Hozirgi paytda matn hodisasining uch asosiy

va keng tarqalgan tavsifi mavjud. Birinchidan, matn til tizimining fonema, morfema, soʻz, gap kabi birliklariga nisbat berilgan holda qaralib, ushbu tizimning eng yuqori bosqichidagi birlik sifatida talqin qilinadi. Tabiiyki, bunday yondashuvda matn grammatika nuqtayi nazaridan oʻrganilib, asosiy eʼtibor matn tuzilishini taʼminlovchi sintaktik-mazmuniy munosabatlar, sintaktik aloqalarni shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalar majmuasini aniqlashga yoʻnaltiriladi. Ikkinchidan, tavsif markazida “faoliyatdagi, harakatdagi lison” gʻoyasi turadi hamda matn til tizimining nutqdagi mahsuli sifatida talqin etiladi. Nihoyat, uchinchi talqinga koʻra, matn nutqiy muloqot tizimi birligidir, unda muloqot ishtirokchilari – adresant va adresat munosabati, maqsadi ifodalanadi. “Metodikada matn ikki jihatdan talqin qilinadi: 1) grammatik jihatdan, 2) pragmatik jihatdan. Grammatika orqali matn tuzilishi bilan bogʻliq tushunchalar oʻrganilsa, pragmatika matniy til hodisalarining nutqda qoʻllanishini oʻrgatadi. Ona tili darslarida grammatika bilim berish vositasi sifatida namoyon boʻladi, pragmatika esa mashqlar orqali bilimlarni koʻnikma va malaka darajasida qoʻllashni koʻzda tutadi”. Grammatikaning matn qismlari bilan bogʻliq sohasi matn sintaksisi (matn lingvistikasi) deb atalmoqda, ayni paytda matn tuzilishi bilan bogʻliq komponentlar qanday nomlanishi kerakligi masalasida aniq bir toʻxtamga kelinmagan. Tadqiqot muammosiga yechim izlash jarayonida fikrlar, tahlil va talqinlarga tayangan holda har qanday kattalikdagi matndan ajratib olinganda oʻz sintaktik tuzilishi jihatidan mustaqillik va tugallanganlik xususiyatlarini saqlab qoluvchi murakkab sintaktik butunlik taʼlimiy birlik sifatida belgilanishi, abzas uning shakliy komponenti, murakkab sintaktik butunlikning uni oʻquvchiga taʼsir kuchini oshirish, mantiqiy urgʻu berish maqsadida bir necha abzasga abzas atamasidan foydalanilmasligini unutmazlik lozim, zero, oʻzbek tilshunosligida abzas murakkab sintaktik butunlikni atash tarzida tilga olinadi.

Maktab ona tili taʼlimida oʻquvchilarni berilgan kichik mavzuda matn tuzishga oʻrgatish uchun murakkab sintaktik butunlik atamasidan foydalanish noqulayligini inkor etib boʻlmaydi. Yangi avlod darsliklarida mazkur atama maʼnosida “matn qismi/qismlari” birikmasi qoʻllanmoqda.

“Ona tili” oʻquv dasturlarida belgilangan talablar doirasida yaratilgan darsliklarda matnning asosiy qismi kichik mavzularni ifoda etuvchi, xatboshidan boshlanadigan qismlardan, har bir qism (murakkab sintaktik butunlik yoki abzas) boshlama, asosiy qism, xulosa qismlardan iborat boʻlishi, qismlarda gaplarning oʻzaro bogʻlanishi, qismlarning oʻzaro bogʻlanishi kabi ichki boʻlinishlar, bogʻlanishlar tizimli ravishda tushuntirilmagan. Aslida matn tuzilishi deganda koʻproq mazkur jihatlar nazarda tutiladi. Ona tili fanidan 1999-yili tasdiqlangan davlat taʼlim standartida murakkab sintaktik butunlik, uning ichki tuzilishiga doir talablar aks etganligi, 2010-yilgi uzviylashgan davlat taʼlim standartida va 2017-yilgi davlat taʼlim standartida matnning ichki tuzilishiga doir talablarning katta qismi tushirib qoldirilgani, murakkab sintaktik butunlik tushunchasi umuman tilga olinmagani, ona tili oʻquv dasturida murakkab sintaktik butunlik haqidagi standart talablari oldindan (1999- yildan) koʻrsatilmagani maʼlum boʻldi. 2020–2021-oʻquv yili uchun eʼlon qilingan “Ona tili fani milliy oʻquv dasturi” loyihasida matn tuzib yozish talabi sinflar boʻyicha aniqlashtirib borilgan. 9-sinf dasturida oʻquvchilarni

matniy jihatdan savodxon qilib tarbiyalash, matniy savodxonlik asosida ularni hayotga tayyorlashdek mas'uliyatli, o'ta murakkab, ayni paytda amalga oshirish zarur bo'lgan yo'nalish e'tiborsiz qoldirilmagan: matn tuzib yozish talabi boshlang'ich sinflardan e'tiboran belgilana boshlagan, 9-sinfda mazkur talablar yanada kengaytirilgan. "Ona tili" darsliklaridagi nazariy ma'lumotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, ularda matn tuzilishiga doir nazariy ma'lumotlar juda oz bo'lsa-da, bor. 5–9-sinflar "Ona tili" darsliklarida keltirilgan sinfda yoki uyda bajarish uchun tavsiya qilingan matn tuzish, matn yaratish, insho yozish talab etiladigan ayrim mashq va topshiriqlar ham mavjud. Lekin darsliklarda uzluksizlik va uzviylik asosida beriladigan nazariy ma'lumotlar (qoidalar va tavsiflar) tizimi o'z ifodasini topmagan. Ayrim nazariy ma'lumotlarda til birligining gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qilishi ham aytilgan bo'lsa-da, bularga misollar keltirilmagan, mashq va topshiriqlar asosida mustahkamlash ko'zda tutilmagan.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbek tili darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashga o'rgatish metodikasi**" deb nomlangan. Mazkur bobning "*O'zbek tili darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashga qo'yiladigan talablar*" faslida tilshunoslikning adabiy til me'yorlarini barcha uchun barobar qilib, barcha amal qiladigan tarzda qoidalashtirish ustuvor ahamiyatga ega. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qoidaning baza, asos, poydevor, tub, qonun-qoida, nizom ekanligi aytilib, quyidagi uch xil ma'nosi keltirilgan:

1. Turli hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni ifodalovchi ma'lum sistema, amal va sh.k.larning asosini tashkil etuvchi tartib, qonun.

2. Biror ish-harakat, amalning qanday bajarilishi haqidagi rasmiy ko'rsatma, yo'l-yo'riq yoki umum tomonidan qabul qilingan tartibot.

3. Rasm, odat.

Tildagi qoida tushunchasining ma'nosi ko'proq ikkinchi izohga mos keladi: qoidani ko'rsatma, yo'l-yo'riq deb ham, umum tomonidan qabul qilingan tartibot deb ham, qonun-qoida deb ham anglash mumkin. "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tili grammatikasi" kabi kitoblarda har bir til hodisasi termin, ta'rif, tasnif, tavsif, qoida tarzida bayon etilgan. Maktabda ona tili ta'limi uchun ular mo'jaz (qisqa) shaklga keltirib beriladi. Termin, ta'rif, tavsif, tasnif til hodisasini nutqda qo'llash uchun ko'rsatmalik, yo'l-yo'riqlik qilmaydi. Faqat qoidagina shu vazifani bajaradi. Metodist olimlarning fikricha, o'qituvchi o'qitish ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun shuni tushunib olishi kerakki, o'zi darsda o'quvchiga uzatayotgan ma'lumotlar axborot, ya'ni kelgusidagi bilim yoki malaka uchun ashyo hisoblanadi, xolos. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilarda olinayotgan axborotlarni bilimga aylantirish malakasini shakllantirish bilan shartlanadi. Boshqacha aytganda, qoida til birligini to'g'ri qo'llash haqidagi zaruriy bilimdir. O'quvchi shu bilim bilan qurollangan taqdirdagina to'g'ri, savodli so'zlay oladi, fikrini yozma ifodalay biladi. Matn tuzilishiga doir qoidalarni bayon qilishda o'qituvchi ularni mutlaqo yangi til birliklari deb bilmasligi, shuning uchun termin va unga ta'rif, til sathiga mansubligini ko'rsatuvchi tasnif, til birligiga doir tavsiflarni darslik asosida o'rganilgan deb hisoblashi va bevosita matniy birlikka doir qoidanigina ajratib olishi mumkin va bu to'g'ri bo'ladi.



“1-rasm”. Matn ustida ishlashga qo‘yiladigan talablar.

Bobning *“Adabiy talaffuz ko‘nikmasini rivojlantirish yo‘llari”* deb nomlangan faslida o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash shakli va vositalari xususida fikr bayon etilgan.

”Til birliklari sirasida mustasno holatlarda qo‘llanadiganlari ham mavjud bo‘lgani uchun ushbu mustasnolar asosiy qoida sifatida emas, balki eslatma tarzida berilishi kerak. O‘quvchilar matn ustida ishlashning ayrim muammolari va unga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat (1-rasmga qarang).

Metodik adabiyotlarda qoidalarining quyidagi turlariga ham e‘tibor qaratiladi: yod olish darajasida o‘zlashtirish talab etiladigan qoidalar, joriy (taktik) qoidalar, istiqbolda asqatadigan (strategik) qoidalar, variativ qoidalar. Lekin matn tuzilishiga doir qoidalar asosan joriy (taktik) qoidalar tusida bo‘lishi kerak, chunki qoida bilan tanishilgandan keyinroq nutqiy mashqlarga o‘tiladi, qoida mashq jarayonida undan amalda foydalanish orqali o‘zlashtiriladi.

Bobning *“O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash shakli va vositalari”* faslida ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rganish jarayoni turli holatlarda tanishish mumkin bo‘lgan, yo‘l-yo‘riqlar, tavsiflar tipida ixcham tuzilgan qoidalar ustidagi ishlar, qoidalarni amaliyot, nutqiy tajriba orqali o‘zlashtirish xususidagi fikrlar bayon etilgan. Matn tuzilishida qoidalar berish shart bo‘lmagan til hodisalari uchraydi. Masalan, ritorik so‘roq gapning matnga qay tarzda kiritilishi lozimligi aytilmaydi. U kuzatishlar natijasi sifatida empirik, intuitiv holda anglanadi. Qoidalashtirishga nisbat berib aytganda, til hodisalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1) qoida bilan tushuntirilmaydigan til hodisalari; 2) qoida yordamida tushuntiriladigan til hodisalari; 3) darslikdagi nazariy ma‘lumot yetarli bo‘ladigan, qoidani misol keltirish yo‘li bilan kengaytiradigan matniy til hodisalari; 4) qoidadan tashqari qo‘shimcha izohlarni taqozo etadigan til hodisalari; 5) yangi tushunchani anglatish asosida beriladigan qoidalar. O‘quvchi tahliliy mashqlar jarayonida tegishli til birligining qo‘llanishini qoida bilan asoslar ekan, o‘zi sezmaganda ushbu qoidani eslab qoladi, evristik mashqlar orqali ularni puxta o‘zlashtiradi. Tuzilgan matnda yo‘l qo‘yilgan xatolar o‘rganilgan qoidalarni eslash yo‘li bilan tuzatilar ekan, qoidalar amaliy egallangan bilimga aylanib boradi. Ona tili darslarida o‘quvchilarga matn tuzilishni o‘rgatishga doir har bir ta‘limiy qadamning natijasi mashq turlari yordamida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bosqichida yakunlanadi. Zero, har bir til hodisasi ma‘lum bir ta‘lim mazmuni bilan belgilanuvchi metodik tizimga ega bo‘lsa-da, barcha matniy til birliklari qoida bilan tushuntirilishi, mashqlar bilan mustahkamlanishiga ko‘ra umumiylik, metodik jihatdan o‘xshashlik kasb etadi. Qoidalar orqali taqdim etilgan bilimlarni qay tarzda o‘zlashtirish, qanday mustahkamlovchi mashqlardan foydalanish, ya‘ni nimalarini amaliyotga joriy etish, ushbu tizimga doir qanday ko‘nikmalar shakllanishi lozimligi, ko‘nikmalar qanday mashqlar va ish turlari yordamida malakaga aylanadi-yu tegishli kompetensiyalar shakllanadi kabi bir qator savollar yuzaga keladi. Matn tuzilishini o‘rganish, matn tuzilish, bog‘lovchi vositalarni qo‘llash, maqol, hadis, hikmatli so‘z, she‘riy misralarni matn tarkibiga kiritish talab etiladigan mashqlarni quyidagi turlarga

ajratish mumkin: 1) tahliliy (analitik) mashqlar; 2) konstruksiyalash-sintezlash mashqlari; 3) qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari; 4) matn tuzish va xatolar ustida ishlash mashqlari; 5) tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari. Dissertatsiyada ushbu mashq turlari mufassal bayon qilingan.

I. Qoidadan matn tuzish jarayonida foydalanishni o'rgatish tahliliy (analitik) mashqlar bajarish jarayonidagina samarali amalga oshiriladi. Tahlil til hodisasini qoida bilan tushuntirish mazmunida kechadi. Tahliliy (analitik) mashqlar o'quvchilarning aqliy, o'quv-biluv faoliyatini faollashtiradi, onglilikka asoslangan amaliy harakatlar o'ziga xos malakalarni tezroq shakllantiradi. Til hodisasini qoida bilan izohlab tahlil qilish jarayoni bora-bora og'zaki bajarilmaydigan, qisqargan tarzda ongda kechadigan jarayonga ko'chadi. Bu holat qoidadan og'zaki tahlilga murojaat etmay, ikki vositadan birini tahlil asosida tanlash paytida kuzatiladi. Faqat bir holatda – o'quvchi til vositasini noto'g'ri tanlaganda qoidani eslash orqali og'zaki muhokama o'tkazilishi mustasno emas. Quyidagi mashq turlarini tahliliy mashq deb hisoblash mumkin: Matndagi biror gapning mazmuniga ko'ra tushib qolgan tinish belgilarini o'z o'rniga qo'yish. Berilgan mavzular nima haqida, ularning qaysi jihatini aks ettirib yozish kerakligini (namunadagidek) izohlash.

II. Konstruksiyalash-sintezlash mashqlari gap yoki matn tuzish mazmunida bo'ladi. Bunda konstruksiya tushunchasi qolip, model tushunchalaridan tuzilganlik ma'nosiga ko'ra farqlanadi. Matn qolipi muayyan shaklga keltirilgan gaplar yig'indisini ifoda etadi: gaplar miqdori va matn hajmi qat'iy chegaralangan bo'ladi. Matn modeli tushunchasi ham shu kabi xususiyat kasb etadi. Lekin konstruksiya tuzish ma'nosini bildirgani uchun ham na miqdoriy, na hajm jihatdan chegaraga ega bo'lmaydi. Matndagi gaplarga nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan, bog'lovchi vositalardan birini qo'yish, gaplarga yoki matnga maqollardan, hikmatli so'zlardan, hadislardan, she'riy parchalardan birini kiritish ham asosan sintezlash jarayonini, gaplarning shakli qisman o'zgaradigan holatlarda konstruksiyalash amalini ifodalaydi. Shuni ham eslatish lozimki, ushbu turdagi mashqlar vaziyatdan kelib chiqqan holda ba'zan tahlilga murojaat etish zaruriyatidan xoli emas. Quyida konstruksiyalash-sintezlash tipidagi mashqlardan namunalar keltiramiz. Berilgan sarlavhalarni darak, so'roq yoki undov gap shaklidagi mavzularga aylantirib yozish. Berilgan mavzularni o'qib, qay biri bosh, qay biri kichik mavzu bo'la olishini aniqlash va ajratilgan ustunlarga yozish.

III. Qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari o'quvchilarning o'z nutqiga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi, uni boyitish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqilligini oshiradi. Qisman ijodiy deyilganiga sabab matnga qo'shiladigan faktik ma'lumotlarni, bog'lovchi vositalarni, maqol, matal, hikmatli so'z, hadis va boshqalarni o'quvchi o'zi o'ylab yoki biror manbadan qidirib topadi va matnga, matn tarkibidagi gapga kiritadi, ya'ni ham ijodiy faoliyat ko'rsatadi, ham konstruksiyalash-sintezlash bilan mashg'ul bo'ladi. Matn yoki gap mazmunidan kelib chiqib mazmun sofligini, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Bunday mashq turlari sirasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: berilgan matnlarga sarlavhalar tanlash. Berilgan jadvalni matnning mazmuni va tuzilishi asosida to'ldirish. Berilgan matnga

biror she'r yoki she'riy misralar kiritish, matnning davomini yozish. Matn mazmuniga mos ikki yoki to'rt misrali she'r tanlash va yozish. Berilgan matnga hadis (maqol, hikmatli so'z) kiritish va qo'yilgan tinish belgilarini izohlash.

IV. "Ona tili" darsliklarida, asosan, matn tuzish va kamdan kam o'rinlarda matndagi xatolarni aniqlash tavsifidagi mashqlar berilgan. Bunday mashqlar shartida ba'zan ma'lum topshiriq ham aks etadi. Masalan, berilgan mavzuda dialogli kichik insho yozish. Berilgan mavzuda bir yoki bir necha qismli matn tuzish. Bu kabi maxsus topshiriqlarning berilishidan qat'i nazar, o'quvchilar nima haqida yozish kerakligi haqida o'ylashdan tashqari qanday yozish kerakligi (matn tuzish qoidalari) haqida bosh qotiradilar. Eng muhimi, yozuvchilar kabi so'z tanlash ustida ishlaydilar. Lekin matn tuzish ko'nikmasi hosil bo'lmaguncha bu ish qiyinlik qilaveradi.

O.O.Xarchenko matn tuzishga doir bilimlarning malakaga ko'chish jarayoni haqida shunday yozadi: "Binobarin, nutqiy ishlarni shunday qurish talab etiladiki, matn haqidagi bilimlarni uni yaratish uchun zarur xususiy malakalarga transformatsiyalash ta'minlansin, boshqacha aytganda, o'quvchilarga matniy kompetensiyani egallashni o'rgatish kerak. Ushbu tushuncha ilmiy muomalaga rus tilida matn yaratishga doir bilimlar asoslarini tadqiq etgan M.Y.Dimarskiy tomonidan kiritilgan".

